

### **MASOFAVIY TA'LIMNING AFZALLIKLARI**

***Maqsimov Sardorbek Mirodil o'g'li***

*Samarqand davlat universitetining Finlandiya-O'zbekiston pedagogika instituti “Ta'linda axborot texnologiyalari” yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

***Maqsimova Sarvinoz Valijon qizi***

*University of Economics and Pedagogy, Iqtisodiyot vajitimoiy fanlar kafedrasi assistenti.*

*Tel: +998934171620 E-mail: [hayitova20@gmail.com](mailto:hayitova20@gmail.com)*

Ko'pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va masofaviy ta'lif usullarini sohalarni aytishimiz mumkin.

Masofaviy ta'lif uslubi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u tinglovchi (o'quvchi)ning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi.

Masofaviy ta'lifning afzalligi shundaki, unda har kim o'ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda.

Masofaviy ta'lif – o'quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o'qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda o'qituvchilarning masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni hisoblanadi.[1]

Bugungi kunda dunyoda ko'pgina OTMlar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag'larini tejamoqda.

Shuningdek, masofaviy ta’limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo‘lib, masalan, o‘qitish uchun sinflar, doskalar, stollar va boshqa o‘quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Tabiiyki bu tizim samarasida xarajatlar kamayadi. O‘quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo‘lsa, shunchalik o‘quvchiga foydali bo‘ladi.

Bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi onlayn dars jarayonidir. Bunday darslar uchun avvalo kommunikatsiya, masofaviy ta’lim uslubiy materiallari, elektron va odatdagi darsliklar, audio va video darsliklar, onlayn darslar (internet sahifa) elektron kutubxonalar, testlar, multimedia elektron darsliklar va, albatta, internetga ulangan kompyuter kerak bo‘ladi.

Bunday ta’limda o‘quvchi har kuni ta’lim muassasasiga borishi shart emas. Shu bilan birga bu tizim vositasida salomatligi cheklanganlar, uzoq hududlarda yashovchi bolalar, hatto mahkumlar bilan birga bo‘lib turgan bolalar ham ta’lim olishi mumkin.

Kattalarga esa masofaviy ta’limda o‘z mehnat faoliyatidan ajralmagan holda ta’lim olish va malaka oshirishlariga imkoniyat yaratiladi.

Bundan tashqari, masofadan turib o‘qiganda bir necha kurslarda bir vaqtning o‘zida ta’lim olish imkoniyati mavjud. Tadqiqotlarda aniqlanishicha masofaviy ta’lim an’anaviy ta’limdan aslo qolishmaydi. Balki samarasiga ko‘ra ustunlik jihatlari ham bor. Negaki, o‘quv materialining asosiy qismini o‘quvchi o‘zi mustaqil o‘qib-o‘rganadi. Bu o‘tilgan mavzularni puxta o‘zlashtirish va eslab qolishga yordam beradi. Buning ustiga darslarni yangi texnologiyalar vositasida o‘qish tinglovchii uchun qiziqarli va mazmunli bo‘ladi.[2]

Bunday ta’lim tizimida darsliklar, qo‘llanmalar yetishmasligi kabi muammolar bo‘lmaydi. O‘quvchi o‘quv materialini elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoq orqali qabul qilib oladi. Shu bilan birga ma’lum saytlarga obuna bo‘lishi, ma’lumotlar bazasiga kirib, o‘ziga kerakli axborotlarni olishi mumkin.

Masofaviy ta’limning yana bir afzalligi uning arzonligidir. Jumladan o‘qishga borish-kelishga, tarnsportga pul sarflanmaydi. Chet elda o‘qish uchun esa viza va xorijiy pasport ham talab qilinmaydi.

Masofadan o‘qitishda o‘quvchilarni baholash onlayn-testlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli o‘quvchilarda imtihon paytidagi havotir va hayajon kuzatilmaydi.

Bunday o‘qitish jarayonining o‘qituvchi uchun foydali jihat shuki, masofadan turib pedagogik faoliyat olib borish vositasida nisbatan ko‘p o‘quvchilarga e’tibor qaratishi mumkin. O‘qituvchi dam olish yoki dekret ta’tilda bo‘lganida ham bemalol faoliyatini davom ettira oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. taim.uz
- 2.Samdu.uz